Аннотация: В данной статье рассмотрены различные теоретические и практические подходы к понятию услуги, а также научно обоснована роль сферы услуг в экономическом росте и региональном развитии. В рамках исследования проведён анализ объёма транспортных услуг, предоставленных в Республике Узбекистан в целом и в региональном разрезе, а также динамики их роста. В частности, на примере Хорезмской области и её районов изучены объёмы транспортных услуг, темпы их роста и территориальное распределение, а также определена доля отдельных регионов в общем объёме пассажирооборота. Полученные результаты позволяют выявить различия в оказании услуг между регионами, оценить потенциал их дальнейшего развития и выработать новые стратегические подходы в сфере предоставления услуг.

Ключевые слова: услуга, сфера услуг, динамика объёма услуг, транспортные услуги, региональное развитие, предприятия сферы обслуживания, экономическая эффективность.



KIRISH

Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi xizmatlar qiymatini baholash qiyin, chunki u jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U transport, omborxona, pochta va kurerlik faoliyati, vaqtinchalik turar joy va umumiy ovqatlanish, axborot faoliyati va telekommunikasiyalar, ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar, kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat, ma'muriy va yordamchi xizmatlar sohasidagi faoliyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam, san'at, sport, ko'ngilochar va dam olish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy mahalliy va xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda "xizmatlar"ni aniqlashning uchta asosiy yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuvni soha deb atash mumkin, unga muvofiq xizmat ko'rsatish sohasi tegishli mutaxassislik sohaslarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, "xizmat" tushunchasi muqobil usul bilan shakllantiriladi, ya'ni mol — mulkka xos bo'lgan narsalarga qarama-qarshi xususiyatlar va belgilar umumlashtiriladi. Ushbu yondashuv oddiy, ammo u ziddiyatli natijalar beradi, chunki turli xil belgilarning ko'plab kombinasiya vujudga kelishi mumkin.

XX asr 80-yillariga kelib uchinchi yondashuv keng tarqalib, unga ko'ra "xizmat" ta'riflari eng umumiy xususiyatlarining aralashmasiga asoslangan va o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi eng aniq xususiyatlar muayyan xizmat turlariga tayinlangan. Ushbu yondashuv hozirgi vaqtda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, garchi ilmiy va texnologik taraqqiyotdan kelib chiqqan ko'plab xizmatlar aralash xususiyatlarga ega.

Ikkinchi va uchinchi yondashuvlar nazariy va amaliyotda eng ko'p qo'llaniladi, bu ularni diqqat bilan ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi.

Keyingi o'n yilliklar jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining rolining oshishi bilan tavsiflanadi. Xorazm viloyatida ishlab chiqarish va tijorat tizimi sifatida xizmat ko'rsatish sohasi ham faol rivojlanmoqda, bu yerda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 42,8 % dan ortig'i ishlaydi. Bugungi kunga kelib, Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlar va muammolar xizmat ko'rsatish sohasining muhim rolini yetarlicha baholamaslik muammosini yanada kuchaytirdi. Bu yangi iqtisodiy barqaror jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasining rolini aniqlash zaruratini tug'dirdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy faoliyat tarkibida o'z ulushi bo'yicha sezilarli darajada ustunlik qiladi. "Xizmat" tushunchasiga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'nlab talqinlarga ega. Ushbu konsepsiyani ta'riflash bo'yicha mavjud yondashuvlarning eng katta sharhi R. Maleri ishlarda keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, xizmatlarni sotish maqsadida ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivlar sifatida izohlaydi. Nomoddiy aktivlar (yoki nomoddiy qiymat) - bu jismoniy obyekt bo'lmagan, lekin qiymatga ega bo'lgan qiymat - pul qiymati [1].

Bizningcha, xizmatni boshqa mahsulot kabi ma'lum mehnat evaziga olingan maxsus iste'mol qiymati deb tushunish lozim bo'lib, xizmatning iste'mol qiymatining o'ziga xos xususiyati shundaki, mehnat xizmatlarni narsa sifatida emas, balki faoliyat sifatida ko'rinishidir. Yuridik adabiyotlarda xizmat deganda shaxsning (odamlar guruhining) foydali mehnat faoliyati tushuniladi, uning natijalari jamiyatning har qanday ehtiyojlarini qondiradigan foydali samarada namoyon bo'ladi [2].

Xizmatning tabiatini tushunish uchun uni moddiy boylik (tovar) bilan asosiy odatda texnik-tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlarga solishtirish katta ahamiyatga ega.

1-jadval. Xizmatning farqli xususiyatlari

Oddiy moddiy boyliklar(tovarlar)	Oddiy xizmatlar
His qilish	His qilmaslik
Narsalarni to'planishi natijasida tovarga aylanishi, moddiylashuv	To'planishi mumkin bo'lmagan jarayon, faoliyat
Ishlab chiqarish va taqsimlash, iste'moldan ajralgan holda amalga oshirilishi	Ishlab chiqarish va iste'mol bir vaqtda amalga oshirilishi
Iste'molchi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasligi	Iste'molchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etishi
Mulkni iste'molchiga o'tkazilishi	Mulkning egasida qolishi

Jadvaldan ko'rinib turganidek, odatda xizmatning muhim xususiyati uning nomuvofiqligidadir. Nomuvofiqligi sababli xizmat faoliyati nomoddiy tarzda foydali ta'sir qiladi. Foydali ta'sir to'g'ridan-to'g'ri odamlarning ehtiyojlariga mos keladigan xizmatni qondirish darajasida namoyon bo'ladi va ularning subyektiv hislari, his-tuyg'ulari, hissiy tajribalari orqali qabul qilinadi.



Foydali ta'sirning nomuvofiqligi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchining ish jarayonidan ajralmasligi iste'molchini tanlashni murakkablashtiradi, chunki oldindan iste'molchi xizmatning foydali ta'sirining iste'mol xususiyatlarini bilmaydi. Bunday "sof" odatiy xizmatlarning iste'molchisi ularni boshqa iste'molchilarning fikri asosida, shuningdek, reklama imidji, moddiy atributlar, tovar belgisi, buklet va boshqalar yordamida bilvosita baholashi mumkin.

Nomoddiylik, nomuvofiqlik xususiyati odatda xizmatlarning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat ko'plab mualliflar uchun xizmatni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

2-jadval. Xizmat tushunchasiga bo'lgan turli xil yondoshuvlar tahlili

Mualliflar	Ta'rif
K.R.Makkonell, S.L.Bryu	xizmat ostida moddiy bo'lmagan (ko'rinmas) hol uchun, iste'molchi, firma yoki hukumat tomonidan bu jarayonga qimmatbaho narsalarni taqdim etishga tayyor ekanligi [3]
F.Kotler	Xizmat - bir tomon ikkinchi tomonga foyda evaziga ko'rsatishi mumkin bo'lgan va his qilish mumkin bo'lmagan jarayon va faoliyat [4]
S. Haller	Xizmat - iste'molchining talabini qondirish maqsadida, ishlab chiqaruvchining har qanday faoliyatga tayyorligi, shu jumladan barcha zarur bo'lgan moddiy, xuquqiy va boshqa resurslarni birlashtirish jarayoni [5]
Meffert va Brun	Xizmat - mijozlarga yoki boshqa obyektlarga (masalan, avtomobilni ta'mirlash) ta'sir qilish uchun xizmat ko'rsatish jarayoni va turli xil asosiy omillarning kombinatsiyasi doirasida (sug'urta xizmatlari sifatida) yoki haqiqiy harakatlar (Sartaroshlik xizmatlari sifatida) bilan bog'liq bo'lgan mustaqil bozor faoliyati.
K.Lovlok	U iste'molchilarga xizmatlar ko'rsatilishi va taqdim etilishi usuli ularning nomuvofiqligi sababli tavsiflanishi qiyinligini ta'kidlaydi [6] va xizmatlarni aniqlash uchun ikkita yondashuv taklif etadi: *xizmat-bu jismoniy obyektlar (tovarlar) ishlatiladigan bir tomon tomonidan taqdim etilgan harakat yoki jarayon, lekin harakatlarning bajarilishi nomoddiy va odatda hyech narsaga egalik qilishga olib kelmaydi; * xizmat-bu xizmatni yoki uning mol-mulkini oluvchiga qaratilgan moddiy yoki nomoddiy harakatlar natijasida ma'lum bir joyda va ma'lum bir vaqtda iste'molchilarga qiymat yaratadigan va muayyan afzalliklarni ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyat turi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati yuqori darajada bo'lib, dunyoning samarali aholisining yarmidan ko'pini ish bilan ta'minlaydi. Jumladan, Germaniyada xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kuchining 41%, Italiyada - 38%, Niderlandiyada - 50% dan kam, AQShda - 73% bandligini ta'minlaydi. Mamlakatning rivojlanish darajasi va uning mavjud salohiyati xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasini to'g'ri aks ettiradi. Xizmat ko'rsatish sohasining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish ko'plab ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, statistik guruhlash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport xizmatlarining hajmi – amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 145124,4 mlrd so'mga yetdi, o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 108,6 % ni tashkil etgan. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 17,7 % ni tashkil etgan.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 50,0 % ni tashkil etgan. Havo transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi 14,5 % ni, quvurlar orqali – 13,9 % ni tashkil etgan. Yordamchi transport faoliyati 12,5 % ni tashkil etgan. O'z navbatida, temir yo'l transporti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar transport xizmatlarining umumiy hajmida 9,1 % ni tashkil etdi (1-rasm).




1-rasm. Transport xizmatlari hajmi va o'sishi (kamayishi) (yanvar-dekabr) [7,9] ((1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda))

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi 28551,6 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi 21,0 foiz darajasida qayd etildi (3-jadval).

3-jadval. Hududlar kesimida transport xizmatlari 2024 yil yanvar dekabr [7,9]


	O'sishi, % da	Hajmi, mlrd so'mda
Sirdaryo	+20,0	1116,1
Jizzax	+13,2	2101,5
Navoiy	+18,2	2635,9
Surxondaryo	+10,7	3309,5
Xorazm	+11,0	4164,3
Qoraqalpog'iston Resp.	+2,0	4265,3
Namangan	+18,1	4978,4
Qashqadaryo	+9,7	5642,8
Buxoro	+9,9	5670,0
Andijon	+15,5	6240,4
Farg'ona	+9,4	7205,6
Samarqand	+17,9	9865,5
Toshkent	+12,1	10246,5
Toshkent shahri	+21,0	28551,6

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 72604,7 mlrd so'mga yetgan. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,9 ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi [7,9]

O'zbekistonda avtomobil transporti xizmatlari o'sishi barqaror tendentsiyaga ega bo'lmoqda. Xususan, 2023-yilda avtomobil transporti xizmatlari o'sishi 7,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 12,4 foizni tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. Avtomobil transporti xizmatlari o'sishi, % [7,9]

Hududlar kesimida ko'rsatilgan avtomobil transporti xizmatlari ulushidagi farq yildan-yilga kamayib bormoqda. Xususan, 2010-yilda avtomobil xizmatlari ulushida Toshkent shahri 20,2 foizni, Toshkent viloyati 15,7 foizni, Samarqand viloyati 13,0 foizni, Farg'ona viloyati 7,6 foizni, Andijon va Buxoro viloyatlari 7,4 foizni, Qashqadaryo viloyati 6,5 foizni, Xorazm viloyati 5,0 foizni, Surxondaryo viloyati 4,2 foizni, Namangan viloyati 4,1 foizni, Navoiy viloyati 2,6 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasi 2,4 foizni, Jizzax viloyati 2,2 foizni, Sirdaryo viloyati 1,8 foizni tashkil etgan. 2024-yilda esa avtomobil xizmatlari ulushida Toshkent shahri 16,7 foizni, Toshkent viloyati 13,2 foizni, Samarqand viloyati 12,1 foizni, Farg'ona viloyati 9,3 foizni, Andijon viloyati 8,5 foizni, Qashqadaryo viloyati 7,2 foizni, Buxoro viloyat 7,1 foizni, Namangan viloyati 5,5 foizni, Xorazm viloyati 5,3 foizni, Surxondaryo viloyati 4,2 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasi 3,3 foizni, Navoiy viloyati 3,2 foizni, Jizzax viloyati 2,9 foizni, Sirdaryo viloyati 1,8 foizni tashkil etgan (4-jadval).



4-jadval. Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari hajmi va ulushi [7,9]

Yillar / hududlar	2010-yil		2015-yil		2020-yil		2023-yil		2024-yil	
	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	5124	100,0	16032,1	100,0	28474,1	100,0	56858,9	100,0	72095,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	121,4	2,4	552,1	3,4	860,5	3,0	1752,5	3,1	2384,3	3,3
Andijon viloyati	379,7	7,4	1385,9	8,6	2441,4	8,6	4689,9	8,2	6095,6	8,5
Buxoro viloyati	378,4	7,4	1214,4	7,6	2128,1	7,5	4099,5	7,2	5153	7,1
Jizzax viloyati	115,1	2,2	435,3	2,7	808,2	2,8	1584,3	2,8	2084,9	2,9
Qashqadaryo viloyati	333	6,5	1164,5	7,3	2111,8	7,4	4380,5	7,7	5209,3	7,2
Navoiy viloyati	131,5	2,6	446	2,8	865,9	3,0	1824,4	3,2	2292,4	3,2
Namangan viloyati	211,9	4,1	755,4	4,7	1530,9	5,4	3306,6	5,8	4193,4	5,8
Samarqand viloyati	665	13,0	1935,9	12,1	3252,1	11,4	6889,5	12,1	8734,8	12,1
Surxondaryo viloyati	213,6	4,2	710,3	4,4	1170,1	4,1	2355,5	4,1	2842,7	3,9
Sirdaryo viloyati	90,4	1,8	263,3	1,6	506,7	1,8	777,6	1,4	1038,9	1,4
Toshkent viloyati	805,5	15,7	2133,5	13,3	3793,4	13,3	7514,9	13,2	9504,8	13,2
Farg'ona viloyati	387,6	7,6	1409,2	8,8	2551,9	9,0	5300,2	9,3	6698,7	9,3
Xorazm viloyati	255	5,0	881,1	5,5	1500,3	5,3	2905	5,1	3803,7	5,3
Toshkent shahri	1035,9	20,2	2744,6	17,1	4947,1	17,4	9476,8	16,7	12053,9	16,7

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi 57,3 foizga yetgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi—46,1%.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 164,3 mlrd. so'mga yetgan.

2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati 111,0 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 14,7 % ni tashkil etgan.

5-jadval. Xorazm viloyatida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ulushi va o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-dekabr) [8,9]

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	4164,3	100,0	111,0
Urganch sh	826,8	19,9	111,6
Xiva sh	104,6	2,5	115,9
Bog'ot	291,1	7,0	107,6
Gurlan	274,6	6,6	111,7
Qo'shko'pir	264,7	6,4	115,6
Urganch	335,7	8,1	118,3
Hazorasp	302,5	7,3	106,5
Tuproqqal'a	111,6	2,7	109,6
Xonqa	383,5	9,2	119,6
Xiva	254,4	6,1	113,5
Shovot	213,5	5,1	109,4
Yangiariq	206,7	5,0	115,3
Yangibozor	208,9	5,0	111,4



Yo'lovchi tashish. 2024- yil yanvar - dekabr oylarida viloyat bo'yicha avtomobil transportida 478,3 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil etagan.

6-jadval. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari [8,9]


	2024- yil yanvar- dekabr	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, %
Tashilgan yo'lovchi, mln. yo'lovchi	478,3	103,8
shu jumladan: avtomobil transporti	478,3	103,8
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	8 887,7	102,4
shu jumladan: avtomobil transporti	8 887,7	102,4

Viloyatning tuman va shaharlari kesimida tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Urganch shahri (98 227,2 ming kishi) egallagan. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich Hazorasp (45 177,3 ming kishi), Xonqa (42 951,5 ming kishi) va Gurlan (42 532,6 ming kishi) tumanlarida kuzatilgan.

7-jadval. Hududlar kesimida yo'lovchi tashish, ming kishi (2024 - yil yanvar- dekabr holatiga [8,9])

Shahar va tumanlar nomi	ming kishi	2023- yil yanvar - dekabrga nisbatan foiz hisobida	jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida
Xorazm viloyati	478 341,4	103,8	100,0
Urganch shahri	98 227,2	103,8	20,5
Xiva shahri	17 039,4	103,9	3,5
tumanlar:			
Bog'ot	19 412,0	104,3	4,1
Gurlan	42 532,6	103,7	8,9
Qo'shko'pir	30 825,9	104,6	6,4
Urganch	41 437,4	104,5	8,7
Hazorasp	45 177,3	103,9	9,4
Tuproqqal'a	15 059,1	102,4	3,2
Xonqa	42 951,5	103,4	9,0
Xiva	39 758,6	103,9	8,3
Shovot	37 801,5	105,7	7,9
Yangiariq	29 446,1	102,5	6,2
Yangibozor	18 672,7	104,8	3,9

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda eng kichik ko'rsatkich quyidagi hududlar - Tuproqqal'a (15 059,1 ming kishi), Xiva shahri (17 039,4 ming kishi), Yangibozor (18 672,7 ming kishi) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



4-rasm. Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % [8,9]

Hududlar kesimida yo'lovchi tashishning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Urganch shahri (20,4 foiz) egalladi. Shu bilan birga Xazorasp (9,5 foiz), Xonqa (9,0 foiz) va Gurlan (8,9 foiz) tumanlarida ham yuqori ulushi kuzatildi.

Xorazm viloyatida 2024-yilda yo'lovchi tashish 2023-yilga nisbatan 106,8 foizga o'sdi. Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahriga to'g'ri kelib, 126,2 foizni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Xazorasp tumanida 115,3 foiz, Shovot tumani 110,6 foizga o'sish orqali egallagan (8-jadval).

8-jadval. Hududlar kesimida yo'lovchi tashish o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida [8,9]

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Xorazm viloyati	93,2	118,8	102,5	102,6	106,8
Urganch sh.	85,1	124,9	102,3	102,4	107,5
Xiva sh.	41,9	180,9	95,1	101,4	126,2
Bog'ot	95,4	115,6	104,0	102,5	104,9
Gurlan	96,4	115,1	102,9	103,0	106,3
Qo'shko'pir	96,2	116,9	101,3	104,8	105,2
Urganch	95,8	117,0	101,8	102,6	107,5
Xazorasp	72,8	127,3	88,0	101,0	115,3
Tuprakkal'a	-	94,7	193,8	101,0	86,6
Xonqa	98,4	114,6	101,2	103,7	105,3
Xiva	132,6	103,2	105,5	101,4	102,1
Shovot	100,9	114,7	99,7	101,4	110,6
Yangiariq	84,9	128,1	104,4	103,0	104,6
Yangibozor	98,8	115,1	100,2	106,9	103,8



2024- yil yanvar - dekabr oylarida viloyat bo'yicha yo'lovchi aylanmasi 8 877,7 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi va 2023- yil yanvar - dekabr oylariga nisbatan 102,4 foizni tashkil qilgan.

9-jadval. Xorazm viloyatining yo'lovchi aylanmasi hajmi, ming yo'lovchi-km [8,9]

	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km	ming yo'lovchi-km
Xorazm viloyati	3200896,0	4608522,1	6993116,7	8086149,1	8412555,0	8571885,1	8984098,3
Urganch sh.	472088,5	685694,1	1274946,1	1506510,4	1618329,9	1659755,1	1736671,7
Xiva sh.			129569,2	266683,1	253285,5	257835,9	318605,6
tumanlar:							
Bog'ot	276626,8	393276,3	296570,1	339237,8	357365,3	362549,3	379191,0
Gurlan	253378,5	366804,3	648642,1	736806,5	759294,2	771985,0	810420,3
Qo'shko'pir	259622,0	376793,4	466925,9	531059,1	545844,5	556670,1	582924,9
Urganch	320644,9	456651,7	623111,2	711132,1	734188,4	749740,0	789721,0
Xazorasp	314432,8	449707,8	680816,7	844741,4	764350,2	776505,4	867315,9
Tuprakkal'a			186637,4	167318,8	327578,7	332788,1	285117,3
Xonqa	299090,8	426619,0	677078,3	754733,6	769070,5	782621,7	823008,9
Xiva	286792,1	416911,8	724352,7	705104,3	758656,6	773507,7	755425,4
Shovot	295325,9	425198,4	587578,3	690233,6	662345,7	674221,7	717608,9
Yangiariq	226177,0	328640,6	403523,1	487912,9	531994,7	536154,3	560816,5
Yangibozor	196716,6	282224,7	293365,6	344675,5	329950,8	337550,7	357270,8

Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Urganch (1736671,7 ming yo'lovchi-km) shahri egallagan. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Xazorasp (867315,9 ming yo'lovchi-km), Xonqa (823008,9 ming yo'lovchi-km) va Gurlan (810420,3 ming yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatilgan.

Ko'rsatilgan yo'lovchi aylanmasidagi eng kichik yo'lovchi-km. quyidagi hududlar- Tuproqqal'a (285117,3 ming yo'lovchi-km), Xiva shahri (318605,6 ming yo'lovchi-km) va Yangibozor tumani (357270,8 ming yo'lovchi-km) hissasiga to'g'ri kelgan.

10-jadval. Tashilgan yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % [8,9]

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Xorazm viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Urganch sh.	18,2	18,6	19,2	19,4	19,3
Xiva sh.	1,9	3,3	3,0	3,0	3,5
tumanlar:					
Bog'ot	4,2	4,2	4,2	4,2	4,2
Gurlan	9,3	9,1	9,0	9,0	9,0
Qo'shko'pir	6,7	6,6	6,5	6,5	6,5
Urganch	8,9	8,8	8,7	8,7	8,8
Xazorasp	9,7	10,4	9,1	9,1	9,7
Tuprakkal'a	2,7	2,1	3,9	3,9	3,2
Xonqa	9,7	9,3	9,1	9,1	9,2
Xiva	10,4	8,7	9,0	9,0	8,4
Shovot	8,4	8,5	7,9	7,9	8,0
Yangiariq	5,8	6,0	6,3	6,3	6,2
Yangibozor	4,2	4,3	3,9	3,9	4,0



Hududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Urganch (19,3 foiz) shahri egallagan. Shu bilan Hazorasp (9,7 foiz), Xonqa (9,2 foiz), Gurlan (9,0 foiz) va Xiva (8,4 foiz) tumanlarida ham yuqori ulush kuzatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari Xorazm viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xorazm viloyatining xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarni yanada rivojlantirish iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun yanada qulay iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratishni talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini kamaytirish;

- aholiga transport xizmati ko'rsatishini tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish;

- ichki bozor uchun yangi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- fan va texnika taraqqiyotini jadal rivojlantirish maqsadida innovation investisiyalarni rag'batlantirish bo'yicha davlat va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish;

- investisiya siyosati sohasida davlat va mahalliy dasturlarni amalga oshirish, xususan, asosiy fondlarni yangilash sohasida imtiyozli kreditlash dasturlarini ishlab chiqish;

- rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga aholini jalb etish orqali xizmat ko'rsatish va servis sohasida mahalliy korxonalarni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlashda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish natijasida, mamlakatda yangidan – yangi qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi va bu o'z navbatida, aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент [Текст] / Г.А. Аванесова. – М.: Аспект Пресс, 2005. – 318 с.
2. Курбанова И.Т. Управление инновационным развитием предприятия сферы услуг [Электронный ресурс] / И.Т. Курбанова, И.К. Шахбанова. – Режим доступа: <http://uecs.ru/uecs-37-372012/item/998-2012-01-31-06-05-56>.
3. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. Принципы, проблемы, политика. Т. II. - М.: Республика, 1992. С. 398.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. - М.: Прогресс, 1991. С. 638.
5. Haller S. Dienstleistungsmanagement. Grundlagen - Konzepte - Instrumente. - Wiesbaden, 2004. S. 9.
6. Лавлок К. Маркетинг услуг: персонал, технология, стратегия. - М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. С. 34.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari
8. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi (<https://www.xorazmstat.uz>) ma'lumotlari.
9. Muallif ishlanmalari



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>